

## YERDAN UNUMLI FOYDALANISH. KADASTR

Haydarov Kamoliddin Zafarovich

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Yer solig'ini to'g'ri hisoblash haqida, tuproq unumdorligini saqlash haqida, yer kadastridagi barcha sohalami tartibga solishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *yer solig'i, kadastr, foydalanish, o'tkazish, huquq, egalik qilish, faoliyat.*

Yer kadastrining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- yerga egalik qilish va yerdan foydalanishga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish tartibi;
- yer maydoni hisoboti;
- yeming sifatini aniqlash;
- tuproq bonitirovkasi;
- yerlami iqtisodiy baholash.

Yer kadastr ma'lumotlari turli xil xalq xo'jaligi masalalarini hal qilish rejasini tuzishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Xususan, ulardan davlat yer fondi tarkibi va holatini tahlil qilish va baholash, yer manbalaridan barcha turlari va xalq xo'jaligining tarmoqlari bo'yicha umumli foydalanishni, tuproq unumdorligini saqlash va tiklash va ulami muhofaza qilish, yer munosibatlari qonun asosida tartibga solish, yer uchastkalariga oid huquqlarni ro'yxatga olish va kafolatlashni ta'minlash uchun yer solig'ini, kredit-garov tizimini, yer narxini belgilash ishlarini, yer loyihalarini tuzishni, yerlarni qo'yish, ajratib berish hollarida ko'riladigan zararni qoplash ishlarini, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalarining xo'jalik faoliyatlarini baholashni rivojlantirish uchun foydalaniladi.

Oliy Majlisning XII sessiyasi qabul qilgan «Davlat yer kadastr to'g'risida»gi Qonun, «Yer kodeksi» va boshqa Qonunlar bilan birga yer qonunchiligining yaxlit tizimini tashkil qiladi. Yangi qonunda agrar munosibatlarda hozirgi kunda kuzatilayotgan chuqur izlanishlar o'z aksini topgan. Unda yer kadastr yuritishni amalga oshiruvchi muassasalar faohyatlari yer uchastkalariga oid hujjatlarni davlat ro'yxatiga olish, baholash masalalarida zamon talablariga javob bera oladigan bo'lmog'i lozimligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Yer solig'ini to'g'ri hisoblash, yeming me'yoriy narxini aniqlash, yer bilan bog'liq sarmoya faoliyati va garov munosibatlari singari holatlar bilan bog'liq yuridik jihatlar qonunda batafsil aks etgan. Bu esa yer kadastridagi barcha sohalami tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Qonun talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishning har qanday vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish ko'p jihatdan uning eng muhim xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o'rganilganiga bog'liq. Bu, eng avvalo, yerga tegishli bo'lib, undan oqilona foydalanish, umuman, sug'oriladigan qonchilik mintaqalarida esa, ayniqsa, uning xususiyatlarini chuqur o'rganish, ilmiy asosdagi tadbirlar majmuini ishlab chiqishga izchillik bilan yondashish va amalda to'plangan tajribaga rioya qilgan

holda tashkil etilishi mumkin. Vujudga kelgan vaziyatda yer kadastrining ahamiyati qayta tiklanishi va u hududni to'g'ri tashkil etish asosida ishlab chiqarishning zaruriy talabi sifatida amalga oshirilishi kerak.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy-samaradorligini har tomonlama oshirib borish — bu zamon talabidir, qishloq xujahgi ishlab chiqarishini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Yerdan to'g'ri foydalanish, respublikada har xil o'simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma-ketligi, tuproqqa ekologik «toza» ishlov berish usullari, o'g'itlash, qulay agrotexnika muddatlaridan muayyan texnologik tartibda foydalanish, o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo'li bilan boshqarishni talab qiladi. Shu sababli, yer kadastri sohasiga quyidagi talablar qo'yilgan:

- respublika maydonini to'la qamrab olish;
- markazlashtirilgan tartibda boshqarish;
- ma'lumotlarni bir xil tartibda to'plash va umumlashtirish;

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. G'.A. Talipov. O'zbekiston yer kadasxri asoslari: — T.: «Moliya», 2007, 188 b. 2. O'zbekiston Respublikasi «Yer kadastri». - Qishloq xo'jaligida islohotlarini chuqirlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. T., «Sharq», 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi «Davlat yer kadastri» Qonuni. T., «Sharq», 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi «Yer solig'i» Qonuni. T., «Sharq», 1990.
5. O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish» Qonuni. T., «Sharq», 1993.